



XALQ DOSTONLARIDA ZOOMORF MIFOLOGIK OBRAZLAR BADIY TALQINLARI

Muqaddam Akbarova

Qo'qon universiteti Andijon filiali talabasi

Zilolaxon Eshanova

Ilmiy rahbar: Dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq dostonlari va ertaklarida uchraydigan zoomorf mifologik obrazlar, ularning kelib chiqishi, poetikasi, badiiy talqinlari, xalq og'zaki ijodidagi o'rni va ahamiyati haqida, shuningdek, zoomorf mifologik timsollarning epik qahramonlar harakterini ochishdagi o'rni, syujet rivojiga ta'siri va badiiy g'oyani ifodalashdagi ahamiyati haqida so'z boradi va bir necha dostonlar misolida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ajdar, bo'ri, mayna, g'oz, humo, ot, zoomorf, doston, ertak.

Аннотация: В данной статье рассматриваются зооморфные мифологические образы, встречающиеся в узбекских народных дастанах и сказках, их происхождение, поэтика и художественные интерпретации, а также их место и значение в устном народном творчестве. Кроме того, анализируется роль зооморфных мифологических символов в раскрытии характера эпических героев, их влияние на развитие сюжета и значение в выражении художественной идеи. Эти вопросы рассматриваются на примере нескольких дастанов.

Ключевые слова: аждар, волк, майна-гусь, хума, конь, зооморфный образ, дастан, сказка.

Abstract: This article examines zoomorphic mythological images found in Uzbek folk epics and fairy tales, their origins, poetics, and artistic interpretations, as well as their role and significance in oral folk literature. In addition, the study explores the function of zoomorphic mythological symbols in revealing the character of epic heroes, their influence on plot development, and their importance in expressing the artistic idea. These aspects are analyzed through examples from several epics.

Keywords: ajdar, wolf, mayna goose, Humo bird, horse, zoomorphic image, epic, fairy tale.

KIRISH

Bizga ma'lumki, xalq og'zaki ijodi qadimgi odamlarning mifologik qarashlari negizida vujudga kelgan. Folklor asarlaridagi mifologik motivlar, mifologik obrazlar, mifik makonlar, doston va ertaklar kompozitsiyasida yetakchi o'rinni egallaydi. Xalq og'zaki ijodidagi ko'plab o'rinlarda uchraydigan zoomorf obrazlar ham ana shunday mifologik obrazlar hisoblanadi.

"Zoomorf atamasi ikki qismli, "hayvonga oid" ma'noli zoo elementi va "shakl" ma'nosidagi morf so'zining birikuvidan hosil bo'lgan" [1]. Bunday obrazlar ko'plab



olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, D.O'rayeva, M.Otajonova, S.Nurullayevalarning "Mif va badiiy ijod", Z.Eshanovaning "O'zbek xalq dostonlarida mifologik obrazlar" nomli o'quv qo'llanmalarida bu obrazning xalq ertak va dostonlaridagi poetik vazifalari batafsil yoritilgan. Biroq zoomorf obrazlarning badiiy talqinlari maxsus tadqiq etilmagan.

Material va metodlar. Xalq dostonlari, ertaklar kompozitsiyasida yetakchi o'rinni egallaydigan miflar bilan bog'liq g'ayritabiiy tug'ilish, evrilish, tush, ta'qiq, shart, sinov kabi mifologik motivlar; Xukumi, Bahra, Mo'g'ol, Badbaxt, Asqartog'lari, Eram bog'i, Charxin ko'l, Sulduz g'ori, Xunxor yurti kabi mifik makonlar folklor asarlarini ham mazmunan, ham shaklan rang-barang qiladi va boyitadi. Mifologik obrazlar esa o'zbek xalq ertak va dostonlar kompozitsiyasida quyidagi shakllarda keladi:

1. Antromorf (inson qiyofasida): Xizr, Shohimardon Pir, kampir
2. Zoomorf (hayvon yoki qush qiyofasida): ot, semerg, g'oz, mayna, ajdar, bo'ri
3. Demonik (yovuz ruh qiyofasida): pari, dev, ajina, jin, yalmog'iz
4. Detal obraz sifatida (sehrli narsa): tog', g'or, uzuk, uchar gilam, qaynar xumcha, oq va qora patlar, quloqchin [2,35]

Biz quyida xalq dostonlari va ertaklarida uchraydigan zoomorf mifik obrazlarning har biriga alohida to'xtalamiz, germeenvtik, struktur-semantik tahlil usuli orqali badiiy talqinlarini yoritamiz.

Natijalar va ularning tahlili. Sehrli fantastik ertaklarda suv oti, ko'k qo'chqor – qizil devning o'g'li, bo'ri(cho'loq bo'ri), sehrli baliq, uchar ot, qanotli tozi, afsonaviy Semurg, Anqo qushi, laylak, g'oz kabi zoomorf qiyofadagi mifologik obrazlarning ayrimlari epik homiy sifatida kelsa, ba'zilar "g'aroyib predmetlar"ni qo'lga kiritishda ko'makchi obrazlar sifatida namoyon bo'ladi [3,54]. Xalq dostonlarida esa asosan, ot, mayna, g'oz, Humo, ajdar kabi zoomorf mifik obrazlar uchraydi.

Ot. Ot qadimdan insonlar hayotida muhim o'rin egallagan jonivor hisoblanadi. "Umar Hayyom "Navro'znomasi"da yozadi: Aytadilarki, to'rt oyoqlilar ichida otdan yaxshisi yo'q, u o'tlovchi to'rt oyoqlilarning podshohidir. Rasul Alayhissalom: "Xayr yilqining peshonasiga yozilgan" deganlar. Kayxusrav: "Mening podshohligimda otdan qimmatliroq narsa yo'q". Nasr bin Sayyor: "Ot jang taxti va qurolining gulidir", - degan" [4,79]. Shuning uchun xalq dostonlarida ot obrazi epik qahramonning do'sti, yo'lboshchisi, qiyin vaziyatlarda yordam beruvchi ko'makchi sifatida namoyon bo'ladi. Alpomish dostonidagi Boychiborning sag'risining ustidan qulog'ining o'rtasigacha to'qson olti qarichligi, qanotining to'rt yarim gaz (3 metr dan ortiq) ligi uning mifik obraz ekanligidan dalolat beradi. Ot epik homiylar tomonidan epik qahramon bilan birgalikda tarbiyalanishini "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida kuzatamiz. Ushbu dostonida ot va epik qahramon epik homiylar tomonidan qo'yilgan vakil –sayis (Soqibulbul) tomonidan tarbiyalanishi ham uning xalq dostonlarida muhim poetik vazifa bajaruvchi obraz ekanligini asoslaydi. Go'ro'g'li turkumiga kiruvchi dostonlarda jang maydonida yaralangan Go'ro'g'li va Avazxonlarni oti qutqaradi. Epik ot uch o'lchamli dunyo modelidagi har uch olamda harakat eta oladigan mifik obraz sifatidagi



talqinlarini “Malika Ayyor” dostonida ko‘ramiz. Dostonida Qorabayir oti doston qahramonlarini yer ostidan chiqib olishiga yordam beradi[2,42-43]. “Alpomish” dostonidagi Alpomishni hamda “Oysuluv” dostonida “filning ustida jahli chiqib bir-ikki tebranganda filning beli sinib ketgan” darajadagi og‘ir vaznli Kunbotirni zindondan oti tortib olganligi uning ko‘makchi ekanligini, homiy eranlar tomonidan tarbiyalanganligini ko‘rsatadi [13]. Dostonlarda epik qahramonning otga bo‘lgan munosabati ham go‘zal tasvirlar orqali ifodalangan. Masalan, “Alpomish” dostonida poyga yakunida Boychiborning oyog‘iga qalmoqlar tomonidan qoqilgan mixlarni Barchin tishlari bilan sug‘urib oladi. Alpomish zindondan otining yordami bilan chiqib olgandan so‘ng uni tavof qilish epizodi esa ot kultiga oid mifik qarashlar ta‘sirida shakllangan [9]. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida esa otini yo‘qotib qo‘ygan Go‘ro‘g‘lining otini izlab butun dunyoni kezib chiqqanligi epik qahramonning ot obraziga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi [10].

Humo. “Humo davlat qushi tushunchasining tarixiy ildizlari “Avesto”dagi asotiriy qush Far bilan bog‘liq. Uning epik nusxasi Humo qushni anglatadi. Xvarna Far olov ma‘budi, omad va tole timsoli bo‘lib, u kimning boshiga qo‘nsa yoki soya solsa, unga baxt va iqbol ato etadi” [5,11] degan qarashlar mavjud bo‘lgan. Xuddi shunday qarashlar “Kuntug‘mish” dostonida davlatqushi obrazi mohiyatida ham yotadi. Farzandlaridan, ayolidan ayrilib ruhan tushkunlikka tushib, qalandar holiga kelib qolgan Kuntug‘mishning boshiga davlatqushining uch martagacha qayta-qaytadan qo‘nib, podsholik taxtiga erishishi voqealar rivojining tubdan o‘zgarib ketishiga, sochilib ketgan oilaning birlashishi va murod- maqsadiga yetishishiga sabab bo‘ladi [12]. Bu holat esa doston syujeti rivojiga, keyingi voqealarning mantiqiy asoslanishiga turtki bo‘lib, syujet yechimining ijobiy hal bo‘lishiga xizmat qilgan.

G‘oz va mayna. Bu zoomorf mifik obrazlar ham epik qahramonga yordamchi vazifasida keladi. Xususan, “Alpomish” dostonida zindonda yotgan Alpomishning tirik ekanligi haqidagi xabarni, ya‘ni uning maktubini yaqinlariga yetkazuvchi obraz sifatida g‘oz ishtirok etgan.[9] Mayna obrazi ham “Ravshan” dostonida Ravshanning zindonda ekanligi haqidagi xabarni uning oila a‘zolariga yetkazgan va buning natijasida otasi Hasanxon sheriklari bilan o‘g‘lini dor ostidan qutqarib qolgan [11]. Demak, bu obrazlar doston syujetida xabarchi qush sifatida talqin qilinadi va tutqunlikda qolgan epik qahramonning o‘z yurtiga xabar yuborishiga xizmat qilgan.

Ajdar. “O‘zbek tilining izohli lug‘atida ajda(r)ho forsha so‘z bo‘lib, afsonaviy katta ilon ekanligi aytiladi. Badiiy ijodda asosan, yovuzlik va ochko‘zlik timsoli sanaladi”[6,253]. Ajdarho obrazining shakllanishida ilon muhim ro‘l o‘ynagan. Shuning uchun ham qozoq va qoraqalpoq folklori namunalarida ba‘zan ushbu obraz ilon (“jilan” yoki “qora jilan”) shaklida ham ifoda etiladi [7,306].

Ajdar obrazi xalq ertak va dostonlarida raqib personaj sifatida keladi va epik qahramon bajarishi kerak bo‘lgan engishi kerak bo‘lgan epik to‘siq sifatida keladi. Epik qahramon ajdar bilan kurashib, uddalab bo‘lmas vazifani bajara oladigan, zulm ko‘rgan xalqqa yordam bera oladigan alp ekanligini isbotlaydi.



Demak, bundan ko'rinadiki, ajdar bilan olishuv motivi doston syujetida epik qahramon initsiatsiyasi sifatida keladi.

"Kuntug'mish" dostonida sahroda och yurgan Kuntug'mishning bir kosa suv va bitta non evaziga "do'sti" Azbarxo'ja qo'ygan buloqni egallab yotgan ajdarhoni o'ldirish, "Rustamxon" dostonida esa Rustamxonning Bujul yurtidagi qizlarni ajdar olib ketishni odat qilgan ajdardan Oftoboyni qutqarishi epizodlari ayni shu talqinlar asosida shakllangan [14]. "Farxod va Shirin" xalq dostonida esa Iskandardan qolgan sirli qutining tisimini bilish uchun chiqqan safari chog'ida uchraydi. Bulardan bilishimiz mumkinki, ajdar obrazi yovuzlik, nafs timsoli sifatida talqin etiladi.

Yuqoridagilardan tashqari xalq og'zaki ijodida uchraydigan bo'ri totem obrazi ham mashhurdir.

Qadimgi totemistik qarashlarga ko'ra bo'ri turk urug'ining ajdodi, inson xaloskori va himoyachisi hisoblanadi. Lekin keyinchalik bu e'tiqodlarga ishonchning yo'qolishi oqibatida bo'ri yovuzlik, zo'ravonlik, bosqinchilik timsoli sifatida namoyon bo'la boshladi. Shu ikkala qarashlardan kelib chiqib bo'ri obrazi xalq og'zaki ijodida ba'zan salbiy, ba'zan ijobiy obraz sifatida talqin qilinadi [8].

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimizning mifik va e'tiqodiy qarashlari asrlar osha folklor namunalarida o'z aksini topib kelmoqda.

Mifologik obrazlar xoh zoomorf bo'lsin, xoh antropomorf bo'lsin, epik qahramonning sinov va shart kabi mashaqqatli vazifalarni bajara olishida ko'makchi vazifasini o'taydi va asar kompozitsiyasini boyitishga, syujetni tashkillashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Salimova, Z. R qizi.(2023). Turk va o'zbek tillarida inson obrazining zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklarda ifodalanishi. Toshkent
2. Eshanova, Z. (2021). O'zbek xalq dostonlarida mifologik obrazlar Namangan
3. Mif va badiiy ijod (o'quv qo'llanma).(2024). Fan ziyosi nashriyoti.
4. Tillavov, A (2022) Epik ot obrazining tarixiy asoslari. O 'zbekiston tili va madaniyati. Adabiyotshunoslik.
5. Turg'unova, S.(2016) O 'zbek folklorida mifologik qush obrazi. Andijon.
6. Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumyoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni. (2020). Toshkent.
7. Allamberganov, H. K (2020) O'zbek xalq ertaklarida ajdarho obrazi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290891>
8. Wikipedia.(n.d.). Bo'r (obrazi). <https://uz.wikipedia.org>
9. Alpomish dostoni (2024) Fozil Yo'ldosh o'g'li
10. Go'ro'g'lining tug'ilishi dostoni (2021) Muhammad Jomurot o'g'li Po'lkan shoir
11. Ravshan dostoni (2024) Ergash Jumanbulbul o'g'li



12. Kuntug'mish dostoni (2021) Ergash Jumanbulbul o'g'li
13. Oysuluv dostoni Ergash Jumanbulbul o'g'li
14. Rustamxon dostoni (2021) Fozil Yo'ldosh o'g'li